Zokir ARIFDJANOV,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN,
Teacher of the Uzbek language and Classical Oriental Literature.
z.arifdjonov@iiau.uz
11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan.

FORS TILIDA PREFIKSLI FE'LLARNING MA'NO GURUHLARI VA ULARNING FUNKSIONAL EKVIVALENTLARI (برداشتن [BAR-DĀŠTAN] FE'LI MISOLIDA)

СМЫСЛОВЫЕ ГРУППЫ ПРЕФИКСАЛЬНЫХ ГЛАГОЛОВ В ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ЭКВИВАЛЕНТЫ (НА ПРИМЕРЕ ГЛАГОЛА برداشتن [BAR-DĀŠTAN])

THE SEMANTIC GROUPS OF PREFIXAL VERBS IN THE PERSIAN LANGUAGE AND THEIR FUNCTIONAL EQUIVALENTS (USING THE VERB برداشتن [BAR-DĀŠTAN] AS AN EXAMPLE)

Kalit so'zlar: *sodda fe'llar, prefiksli fe'llar, qo'shma fe'llar,* برداشتن *[bar-dāštan] fe'li, leksik-semantik variantlar, leksik variant, funksional ekvivalent, formal variant, ko'pma'nolilik, ma'no guruhlari.*

Ключевые слова: *простые глаголы, префиксальные глаголы, сложные глаголы, глагол* برداشتن *[bar-dāštan], лексико-семантические варианты, лексический вариант, функциональный эквивалент, формальный вариант, многозначность, смысловые группы.*

Keywords: *simple verbs, prefixal verbs, complex verbs, the verb* برداشتن *[bar-dāštan], lexical-semantic variants, lexical version, functional equivalent, formal version, polysemy, semantic meaning.*

Prefiksli fe'llar fors tilidagi fe'llar orasida eng kam sonlisi bo'lib ularning fors tili fe'l tizimidagi variantlashuv, jumladan, leksik-semantik variantlashuv va funksional ekvivalentlik hodisasidagi o'rni ham sodda va qo'shma fe'llar darajasida emas. Biroq fors tilidagi prefiksli fe'llar orasida o'zining ko'pma'noliligi, ya'ni ko'plab leksik-semantik variantlarga ega ekanligi bilan ajralib turadigan fe'llar ham yo'q emas. Leksik-semantik variantlilik funksional ekvivalentlik bilan bo'g'liq tushuncha bo'lib, ko'pma'noli so'z o'zining leksik-semantik variantlarining har birida boshqa so'zlar bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishadi. Ya'ni so'zda qanchalik ko'p leksik-semantik variant bo'lsa, unda boshqa so'zlar bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishish imkoniyatlari shunchalik katta bo'ladi. E.V. Kuznetsova shakli har xil bo'lgan, ammo tilda bir xil mazmuniy funksiyani bajaradigan formal (shakliy) variantlik turini *funksional ekvivalent* deb ataydi *(Kuznetsova E.V., 1989:123)*, Rus tilshunosi S.O. Kartsevskiyning ko'pma'nolilik va sinonimiyani tildagi variantlilik munosabatlarining asosiy turlaridan deb hisoblaganiga asoslanib *(Kartsevskiy S.O., 1965)* Sh. Balli funksional ekvivalentlik munosabatlari bilan bog'langan turli so'zlarni semantik variantlarga qarshi o'laroq *leksik variantlar* deb atashni taklif qiladi *(Balli Sh., 2001)*. Ammo L.V. Kropotova leksik variant tilshunoslikda variantlashuvning boshqa turiga nisbatan qo'llanilayotganligidan kelib chiqib ularni *funksional ekvivalentlar* yoki *formal variantlar* deb ataydi *(Kropotova L.V., 2009:158)*.

Bizning nazarimizda nafaqat shakl, balki ma'no birligi ham hisoblangan so'zning formal yoki funksional jihatdan ham variantlashuvi mumkinligi to'g'risida so'z yuritgan ushbu tilshunoslarning fikrlariga qo'shilmaslik mumkin emas. Ta'kidlab o'tish joizki, tildagi variantlashuv hodisasida muhim o'rin tutadigan so'zlarning funksional ekvivalentlari tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishda asosiy rollardan birini o'ynaydi.

Fors tilidagi shunday xususiyatlarga ega bo'lgan prefiksli fe'llardan biri sifatida برداشتن [bar-dāštan] fe'lini eslatish mumkin.

برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'li ko'pma'noli fe'llardan hisoblanib Y.A. Rubinchik tahriri ostidagi "Forscha-ruscha" ikki tillik lug'atida *(Persidsko-russkiy slovar, 1985:198)* ushbu so'zning quyidagi besh ma'nosi keltirilgan: 1) ko'tarmoq; 2) yechmoq (*bosh kiyimni*); 3) birga olib kelmoq; 4) yig'ib-terib olmoq (*hosilni*); 5) *qo'shma fe'llar komponenti*: دست برداشتن [dast bar-dāštan] qo'l tortmoq, qilishdan to'xtamoq; قدم براشتن [γadam bar-dāštan] chora ko'rmoq.

Hasan Anvariyning "Farhang-e bo'zo'rg-e So'xan" izohli lug'atida *(Anvari H., 1381:904-905)* esa برداشتن [bar-dāštan] ning yigirma ikkita (jumladan, sakkizta arxaik) ma'nosi keltirilgan bo'lib, ulardan hozirgi fors tilida ishlatilayotganlari quyidagilardan iborat:

1) olmoq (*joyidan*), ko'tarib olmoq; 2) ko'tarmoq (*yuqoriga*), olmoq (*biror narsaning ustidan*); 3) o'ziga olmoq, o'ziniki qilib olmoq; 4) vujudga keltirmoq, hosil qilmoq, paydo qilmoq (*yoriq va sh.k.*); 5) ko'chirib olmoq, yozib olmoq, olmoq, tushirmoq (*nusxa, surat va sh.k.*); 6) qoplab olmoq, bosib ketmoq (*suv, ovoz va sh.k.*); 7) yig'ib-termoq, yig'ib-terib olmoq (*hosilni*); 8) olmoq, sotib olmoq; 9) birga olib olmoq, birga olib chiqmoq, birga olib yurmoq, birga olib ketmoq; 10) chidamoq, chidash bermoq; 11) o'rtadan olib

Maqolada tildagi variantlashuv hodisasida muhim o‘rin tutadigan funksional ekvivalentlik munosabatlari haqida so‘z yuritiladi. Mavzu doirasida yetuk tilshunos olimlarning fikrlari keltiriladi, tahlil qilinadi va xulosalar beriladi. Funksional ekvivalentlar tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishda asosiy rollardan birini o‘ynashligi haqida ta’kidlanadi va fors tilidagi shunday xususiyatlarga ega bo‘lgan prefiksli fe’llardan biri sifatida برداشتن [bar-dāštan] fe’li tadqiqot obyekti sifatida keng tadqiq qilinadi, uning leksik-semantik variantlari aniqlanadi. Leksik-semantik variantlari klassifikatsiya qilinib, ma’no guruhlariga ajratiladi va har bir ma’no guruhining funksional-ekvivalentlari aniqlanadi. Aniqlangan funksional ekvivalentlar manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe’lining 18ta leksik-semantik variantlari aniqlanib, ularni to‘rt ma’no guruhiga ajratilada va har bir ma’no guruhining funksional-ekvivalentlari taqdim etiladi. Keyingi o‘rinda maqola hajmidan kelib chiqgan holda faqatgina uning ma’nolarining birinchi – “olish” ma’no guruhiga tegishli bo‘lgan (joyidan) olmoq, (joyidan ko‘tarib) olmoq, (qo‘liga) olmoq ma’nosidagi funksional ekvivalentlari to‘g‘risida batafsilroq so‘z yuritiladi. Tadqiqot so‘ngida natijalardan kelib chiqqan holda fors tilida sodda va qo‘shma fe’llarga nisbatan soni ancha kam hisoblangan prefiksli fe’llar ham ko‘pma’nolilik hususiyatiga ega ekanligi haqida xulosa qilinadi.

В статье рассматриваются функционально эквивалентные отношения, которые играют важную роль в феномене языковой вариации. В рамках темы представлены и проанализированы мнения ведущих лингвистов, приведены результаты анализа. В связи с тем, что функциональные эквиваленты играют ключевую роль в расширении возможностей выражения, в качестве префиксального глагола с такими характеристиками в персидском языке к анализу привлечен глагол برداشتن [bar-dāštan] в результате чего установлены его лексико-семантические варианты, которые подразделены на смысловые группы. Кроме того выявлены функциональные эквиваленты каждой смысловой группы, которые проанализированы на основе соответствующих источников. В исследовании установлены 18 лексико-семантических вариантов префиксального глагола برداشتن [bar-dāštan], которые разделяются на четыре группы по их значениям, также определены функциональные эквиваленты каждой группы значений. Более подробно рассмотрены только функциональные эквиваленты со значениями взять (с места), поднять (с места), взять (в руки) которые относяться к первой группе значений - «взять». В конце исследования делается вывод о том, что префиксильные глаголы, которые менее многочисленны, чем простые и сложные глаголы, также являются многозначными.

The article discusses functionally equivalent relationships that play an important role in the phenomenon of linguistic variation. Within the framework of the topic, the views of leading linguists are presented and analyzed, the results of the analysis are presented. Because functional equivalents play a key role in expanding the possibilities of expression, the verb برداشتن [bar-dāštan] is used as a prefixal verb with such characteristics in the Persian language, as a result of which its lexical-semantic variants are established, which are divided into semantic groups. Besides, the functional equivalents of each semantic group are identified, which are analyzed based on relevant sources. The study established 18 lexical and semantic variants of the prefixal verb برداشتن [bar-dāštan], which are divided into four groups according to their meanings, and the functional equivalents of each group of meanings are also determined. Only functional equivalents with values to take (from a place), lift (from a place), take (in hands) which belong to the first group of values - “take” are considered in more detail. At the end of the study, it is concluded that prefixal verbs, which are less numerous than simple and complex verbs, are also ambiguous.

tashlamoq, yo‘qotmoq, yo‘q qilmoq; 12) o‘g‘irlamoq, urib ketmoq; 13) olib tashlamoq, uzib (kesib, ajratib) olmoq (*tana a’zosi va sh.k.*); 14) chetga surmoq, chetga surib qo‘ymoq, ochmoq (*parda va sh.k.ni*).

Y.A. Rubinchik tahriri ostidagi “Forscha-ruscha” ikki tillik lug‘atida برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe’lining eng asosiy ma’nolarigina berilib, uning boshqa o‘rinlarda ishlatiladigan ma’nolari aks ettirilmaganligi Hasan Anvariyning “Farhang-e bo‘zo‘rg-e So‘xan”i ham ushbu so‘zning barcha ma’nolarini qamrab ololmaganligidan kelib chiqib برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe’lining hozirgi fors tilida turli o‘rinlarda qo‘llaniladigan ma’nolarini quyidagi tarkibda aks ettirishga qaror qildik:

1) (joyidan) olmoq, (joyidan ko‘tarib) olmoq, (qo‘liga) olmoq;

2) ko‘tarmoq, ko‘tarib turmoq, ko‘tarib yurmoq;

3) (yuqoriga) ko‘tarmoq (*bosh, qo‘l va sh.k.ni*);

4) (ustidan) olmoq, olib (boshqa joyga) qo‘ymoq;

5) o‘ziga olmoq, o‘ziniki qilib olmoq, egallab olmoq;

6) vujudga keltirmoq, hosil qilmoq, paydo qilmoq (*yoriq va sh.k.*);

7) ko‘chirib olmoq, yozib olmoq, olmoq, tushirmoq (*nusxa, surat va sh.k.*);

8) qoplab olmoq, bosib ketmoq, bosmoq, tutmoq (*suv, ovoz va sh.k.*);

9) o‘rmoq, termoq, uzmoq, yig‘ib-termoq, yig‘ib-terib olmoq (*hosilni*);

10) olmoq, sotib olmoq;

11) birga olib olmoq, birga olib kelmoq (ketmoq, bormoq);

12) chidamoq, chidash bermoq, ko‘tarmoq (*qiyinchilik, g‘am va sh.k.ni*);

13) o‘rtadan olib tashlamoq, yo‘qotmoq, yo‘q qilmoq;

14) o‘g‘irlamoq, o‘g‘irlab olmoq, o‘g‘irlab ketmoq, urib ketmoq;

15) olib tashlamoq, uzib (kesib, ajratib) olmoq (*tana a'zosi va sh.k.*);

16) chetga surmoq, chetga surib qo'ymoq, ochmoq (*parda va sh.k.ni*);

17) olib qo'ymoq, boshqa joyga qo'ymoq (*biror joydan biror narsani*);

18) (boshidan) olmoq, yechmoq (*bosh kiyim, hijob va sh.k.ni*).

Ko'rib chiqqanimizdek, برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'li turli o'rinlarda qo'llaniladigan o'n sakkiz ma'noga, ya'ni o'n sakkiz leksik-semantik variantga ega bo'lib, ushbu fe'lning har bir leksik-semantik variantidagi funksional ekvivalentlik munosabatlari bilan yaxshiroq tanishish uchun ushbu ma'nolar – leksik-semantik variantlarni quyidagi ma'no guruhlariga bo'lamiz:

1. *Olish* ma'no guruhi:

1) (joyidan) olmoq, (joyidan ko'tarib) olmoq, (qo'liga) olmoq;

2) o'ziga olmoq, o'ziniki qilib olmoq, egallab olmoq;

3) olmoq, sotib olmoq;

4) o'rmoq, termoq, uzmoq, yig'ib-termoq, yig'ib-terib olmoq (*hosilni*);

5) birga olib olmoq, birga olib kelmoq (ketmoq, bormoq);

6) ko'chirib olmoq, yozib olmoq, olmoq, tushirmoq (*nusxa, surat va sh.k.*);

7) o'g'irlamoq, o'g'irlab olmoq, o'g'irlab ketmoq, urib ketmoq.

2. *Ko'tarish* ma'no guruhi:

1) ko'tarmoq, ko'tarib turmoq, ko'tarib yurmoq;

2) (yuqoriga) ko'tarmoq (*bosh, qo'l va sh.k.ni*).

3. *Olib tashlash* ma'no guruhi:

1) (ustidan) olmoq, olib (boshqa joyga) qo'ymoq;

2) olib qo'ymoq, boshqa joyga qo'ymoq (*biror joydan biror narsani*);

3) chetga surmoq, chetga surib qo'ymoq, ochmoq (*parda va sh.k.ni*);

4) (boshidan) olmoq, yechmoq (*bosh kiyim, hijob va sh.k.ni*).

5) olib tashlamoq, uzib (kesib, ajratib) olmoq (*tana a'zosi va sh.k.*);

6) o'rtadan olib tashlamoq, yo'qotmoq, yo'q qilmoq.

4. *Biror holatga solish* ma'no guruhi:

1) vujudga keltirmoq, hosil qilmoq, paydo qilmoq (*yoriq va sh.k.*);

2) qoplab olmoq, bosib ketmoq, bosmoq, tutmoq (*suv, ovoz va sh.k.*).

Quyida funksional ekvivalentlarini ular anglatadigan barcha ma'nolar va ma'no guruhlari asosida o'rganishning birinchi bosqichida نتشادرب [bar-dāštan] prefiksli fe'lining o'zi anglatadigan barcha ma'nolar va ma'no guruhlaridagi funksional ekvivalentlarini umumiy tarzda ko'rib chiqamiz.

Fors tilidagi ko'pma'noli so'zlardan bo'lgan نتشادرب[bar-dāštan] prefiksli fe'li o'zi anglanadigan ma'nolar va ma'no guruhlarida quyidagi fe'llar bilan funksional ekvivalentlik munosabatida bo'ladi:

1. *Olish* ma'no guruhi:

1) (joyidan) olmoq, (joyidan ko'tarib) olmoq, (qo'liga) olmoq; misol:

کیف را برداشتم و به سمت کلیسا راه افتادم,*(Habib Ahmadzode, 1387:29).*

Kif rā bardāštam va be samt-e kalisā rāh oftādam

Sumkani oldim-u cherkov tomon yo'lga tushdim.

میله را دوباره بر آتش گذاشت، نی را از لبش برداشت، سرش را به متکالم داد و دود را آرام آرام به بیرون دمید.*(https://books.google.co.uz).*

Mile rā dobāre bar ātaš gozāšt, ney rā az labaš bardāšt, saraš rā be motakālem dād va dud rā ārām be birun damid.

U temir tayoqchani yana olovga qo'ydi, lablaridagi naychani olib, bosh chayqadi va tutunni asta-sekin tashqariga chiqarib yubordi.

Funksional ekvivalentlari:

گرفتن [gereftan]، به (در) دست گرفتن[be dast gereftan]، برگرفتن [bar-gereftan]، بلند کردن[boland kardan].

2) o'ziga olmoq, o'ziniki qilib olmoq, egallab olmoq; misol:

جنس های خوب را خودش برداشت و بقیه را تقسیم کرد.

Jens'hā-ye xub rā xodaš bar-dāšt va bayiye rā taysim kard.

Yaxshi mollarni o'ziga oldi va qolganlarini bo'lib berdi.

اوایل، زنت این پول را فقط با تو خارج می کرد، اما زمانی رسید که کل پول را خودش برداشت *(https://books.google.co.uz).*

Avāyel, zanat in pul rā fayat bā to xarj mikard, ammā zamāni resid ke koll-e pul rā xodaš bardāšt.

Boshida, xotining bu pullarni faqat sen bilan sarflardi, ammo shunday payt keldiki, hamma pulni o'ziniki qilib oldi.

Funksional ekvivalentlari:

تصاحب کردن [tasāhob kardan]، صاحب شدنsāheb [šodan]، مال خود کردن [māl-e xod kardan]، از آن خود کردنaz ān-e xod kardan].

3) olmoq, sotib olmoq; misol:

دکاندار آن را کمتر از نرخ روز بر می داشت*(Mohammad Ali E.N., 1365:25).*

Dokāndār ān rā kamtar az nerx-e ruz bar-midāšt.

Do'kondor uni shu kunning narxidan kamroq bahoga sotib olardi.

Funksional ekvivalentlari:
خریدن [xaridan]، خریداری کردن [xaridāri kardan]، گرفتن [gereftan].

4) o‘rmoq, termoq, uzmoq, yig‘ib-termoq, yig‘ib-terib olmoq (*hosilni*); misol:

کشاورزان محصول را برداشتند.

Kešāvarzān mahsul rā bardāštand.

Dehqonlar hosilni yig‘ib-terib oldilar.

آقای رشیدی افزود که در سال گذشته ۰۵۶ هکتار زمین را در ولایت هرات زعفران کشت کرده بودند در نتیجه کشاورزان حدود سه تن محصول برداشتند *(https://www.bbc.com)*.

Āyā-ye rašidi afzud ke dar sāl gozašte 650 hektār zamin rā dar velāyat-e herāt zafarān kešt karde budand dar natije kešāvarzān hodud-e se ton mahsul bar-dāštand.

Janob Rashidi o‘tgan yili Hirot viloyatida 650 gektar yerga zafaron ekishganliklari va natijada fermerlar 3 tonnaga yaqin mahsulot olganliklari haqida qo‘shimcha qildi.

Funksional ekvivalentlari:
جمع کردن [jam’ kardan]، جمع آوری کردن[jam’āvari kardan]، چیدن[čidan].

5) birga olib olmoq, birga olib kelmoq (ketmoq, bormoq); misol:

مادرت را بردار و بیا.

Mādarat rā bar-dār va biyā

Onangni olgin-da kel / Onangni birga olib kel.

Funksional ekvivalentlari:
با خود همراه کردن [bā xod hamrāh kardan]، همراه آوردن [hamrāh āvardan]، همراه بردن[hamrāh bordan].

6) ko‘chirib olmoq, yozib olmoq, olmoq, tushirmoq (*nusxa, surat va sh.k.*); misol:

U aksi az man bar-dāšt - او عکسی از من برداشت

U meni suratga oldi (tushirdi);

با دوربین عاریتی تا می توانستم از او عکس گرفتم و محو باغچه اش شدم *(https://books.google.co.uz)*.

Bā durbin-e āriyati tā mitavāneštam az u aks gereftam va mahv-e bāγčeaš šodam.

Omonatga olib turgan fotooparatim bilan uddalaganimcha uni suratga tushirdim va uning bog‘chasiga shaydo bo‘lib qoldim.

Az ketāb nosxe bar-dāšt - از کتاب نسخه برداشت

Kitobdan nusxa ko‘chirdi;

کسی که از روی نوشته نسخه برمی دارد دیگر اصلاحات نویسنده را عینا در نسخه خودش منعکس نمی‌کند.*(https://books.google.co.uz)*

Kasi ke az ru-ye nevešte nosxe bar-midārad digar eslāhāt-e navisande rā eynan dar nosxe-ye xodaš mon’akes nemikonad.

Yozganlaridan nusxa oladigan odam yozuvchining tuzatishlarini aynan o‘zining nusxasida aks ettirmaydiku.

Az dars yāddāšt bar-dāštam - از درس یادداشت برداشتم

Darsdan konspekt ko‘chirdim.

با یادداشت برداشتن، به راحتی می‌توانید به اطلاعات خود دسترسی پیدا کنید و به خوبی مدیریتش نمایید *(https://article.tebyan.net)*.

Bā yāddāšt bardāštan, be rāhati mitavānid be ettelāāt-e xod dasٹresi peydā konid va be xubi modiriyateš namāyid.

Qaydlarni olish (yozib olish) bilan siz o’zingizning ma’lumotlaringizga osongina kirishingiz (ko‘rishingiz) va ularni boshqarishingiz mumkin.

Funksional ekvivalentlari: [gerftan] گرفتن, [andāxtan] انداختن.

7) o‘g‘irlamoq, o‘g‘irlab olmoq, o‘g‘irlab ketmoq, urib ketmoq; misol:

Kif rā dar otobus bar-dāštand کیفم را در اتوبوس برداشتند

-

Sumkamni avtobusda o‘g‘irlab ketishdi.

در حالی که از همه وجود امیر خون بیرون می‌زد، کیف و موبایلش را برداشتند و رفتند*(https://www.yasa.co)*.

Dar hāli ke az hame-ye vojud-e amir xun birun mizad, kif va mubāylaš rā bar-dāštand va raftand.

Amirning butun vujudidan qon oqiyotgan paytda, sumka va mobil telefonini o‘g‘irlab ketishdi.

Funksional ekvivalentlari:
دزدیدن [dozdidan]، به سرقت بردن[be serγat bordan]، ربودن [robudan]، بردن [bordan]، برگرفتن [bar-gereftan]، گرفتن [gereftan]، قاپیدن[γāpidan].

2. *Ko‘tarish* ma’no guruhi:

1) ko‘tarmoq, ko‘tarib turmoq, ko‘tarib yurmoq; misol:

کیسه پر از سیب را برداشته به بازار رفت.

Kise-ye por az sib rā bar-dāšte be bāzār raft.

Olma to‘la qopni ko‘tarib, bozorga bordi.

دو عدد چای کیسه ای را برداشته و در آب خنک خیس کنید و بگذارید کمی در یخچال بمانند *(https://www.rokna.net)*.

Do adad čāy-e kisei rā bar-dāšte va dar āb-e xonak xis konid va begozārid kami dar yaxčāl bemānad

Ikkita paketchali choyni olib, sovuq suvda ho‘llang va biroz muzlatgichga qo‘ying.

Funksional ekvivalentlari:
گرفتن [gereftan]، برگرفتن [bar-gereftan]، حمل کردن. [haml kardan]

2) (yuqoriga) ko‘tarmoq (*bosh, qo‘l va sh.k.ni*); misol:

Boshini ko‘tardi - Saraš rā bar-dāšt سرش را برداشت

-

Funksional ekvivalentlari:
بالا کردن [bālā kardan]، بلند کردن[boland kardan]

3. *Olib tashlash* ma’no guruhi:

1) (usٹtidan) olmoq, olib (boshqa joyga) qo‘ymoq; misol:

پایت را از روی دستم بردار.

Pāyat rā az ru-ye dastam bar-dār.

Oyog‘ingni qo‘limning ustidan ol.

هنگامی که همکلاسی مارال جنووا به طور اتفاقی در مهد کودک روی دستش پا گذاشت، او نمی‌توانست صدایش را بلند کند و بگوید «پایت را از روی دستم بردار» *(http://tandorosti.akaup.com).*

Hengāmike hamkelāsi-ye mārāl jonovā be tour-e ettefāyi dar mahd-e kudak ru-ye dastaš pā gozāšt, u nemitavānest sedāyaš rā boland konad va beguyad “pāyat rā az ru-ye dastam bar-dār”.

Morol Jo‘no‘vaning bog‘chadoshi bog‘chada tasodifan uning qo‘liga oyoq qo‘ygan vaqtda “oyog‘ingni qo‘limning ustidan ol” deb ayta olmasdi.

Funksional ekvivalentlari:

بردن [bordan]، گرفتن[gereftan].

2) olib qo‘ymoq, boshqa joyga qo‘ymoq (*biror joydan biror narsani*); misol:

کتاب را از روی میز برداشت-*Ketāb rā az ru-ye miz bar-dāšt*

Kitobni stol ustidan olib qo‘ydi.

حوله‌اش را از روی در کمد برداشت و از اتاق رفت بیرون *(https://books.google.co.uz).*

Houleaš rā az ru-ye dar-e komod bar-dāšt va az otāy raft birun.

Sochig‘ini shkaf eshigining ustidan oldi va xonadan chiqib ketdi.

Funksional ekvivalentlari:

جابجا کردن [jābejā kardan]، نقل مکان کردن[naγl-e makān kardan]، گرفتن[gereftan].

3) chetga surmoq, chetga surib qo‘ymoq, ochmoq (*parda va sh.k.ni*); misol:

پرده پنجره را برداشت- *Parde-ye panjare rā bar-dašt*

Deraza pardasini chetga surib qo‘ydi.

Funksional ekvivalentlari:

کنار زدن [kenār zadan]، کنار کشیدن [kenār kešidan]، باز کردن[bāz kardan].

4) (boshidan) olmoq, yechmoq (*bosh kiyim, hijob va sh.k.ni*); misol:

Hejāb rā az ruyaš bar-dāšt –حجاب را از رویش برداشت

Yuzidan hijobni oldi (ko‘tardi)

ما که نگفتیم اگر کسی در خانه‌ی خودش در مقابل نامحرم روسری‌اش را برداشت، ما او را تعقیب می‌کنیم.*(http://farsi.khamenei.ir).*

Mā ke nagoftim agar kasi dar xāne-ye xodaš dar moγābel-e nāmahram rusariaš rā bar-dāšt, mā u rā ta’yib mikonim.

Agar biror kim o‘zining uyida nomahramning yonida ro‘molini yechsa, uni taqib ostiga olamiz deb aytmadik.

در این ویدئو که امروز منتشر شد دختربچه‌ای را می بینید که با پدرش به دیدار پاپ فرانسیس می‌روند و پاپ او را می‌بوسد که ناگهان دختر کلاه پاپ را از سرش برمی‌دارد *(https://www.mashreghnews.ir).*

Dar in vidyu ke emruz montašer šod doxtarbačei rā mibinid ke bā pedaraš be didār-e pāp ferānsis miravand va pāp u rā mibusad ke nāgahān doxtar kolāh-e pāp rā az saraš bar-midārad.

Bugun e’lon qilingan videoda otasi bilan pop Fransisning oldiga borgan va pop uni o‘payotgan vaqtda to‘satdan popning boshidan bosh kiyimini olib qo‘ygan qizaloqni ko‘rasiz.

Funksional ekvivalentlari:

کنار زدن [kenār zadan]، کنار کشیدن[kenār kešidan]، باز کردن [bāz kardan]، گرفتن [gereftan]، کندن [kandan].

5) olib tashlamoq, uzib (kesib, ajratib) olmoq (*tana a’zosi va sh.k.*); misol:

معده او را برداشتند - *Uning oshqozonini olib tashlashdi.*

سوالی کسانی که از روکش های دندانی استفاده می کنند، می باشد. در جواب این سوال بایستی گفت، بله می توان روکش دندان را به دلایل مختلف برداشت *(https://virgool.io).*

Suāli kasāni ke az rukešha-ye dandāni estefāde mikonand, mibāšad. Dar javāb-e in suāl bāyesti goft, bale mitavān rukeš-e dandān rā be dalāyel-e moxtalef bar-dāšt.

Bu savol tish qoplamalaridan foydalanadigan kishilarning savolidir. Bunga javoban “ha tish qoplamalarini turli sabablarga ko‘ra olib tashlash mumkin”, deb aytish kerak.

Funksional ekvivalentlari:

بریدن [boridan]، قطع کردن [γat’ kardan]، جدا کردن[jodā kardan]، گرفتن [gereftan].

6) o‘rtadan olib tashlamoq, yo‘qotmoq, yo‘q qilmoq; misol:

عرق، قفل تیق را هم از کلامش برداشت *(Mohammad Ali) Jamolzode, 1321:198).*

Araγ, yofl-e topoγ rā ham az kalāmaš bar-dāšt.

Ter uning tilidagi duduqlikni ham yo‘qotdi;

همه رقبای خود را که در راهش داشت برداشت.

Hame-ye roγabā-ye xod rā ke dar rāhaš dāšt bar-dāšt.

Yo‘lidagi raqiblarining hammasini yo‘q qildi.

Funksional ekvivalentlari:

از بین بردن [az beyn bordan]، زایل کردن[zāyel kardan]، نابود کردن [nābud kardan]، حذف کردن [hazf kardan]، برگرفتن [bar-gereftan].

4. *Biror holatga solish* ma’no guruhi:

1) vujudga keltirmoq, hosil qilmoq, paydo qilmoq (*yoriq va sh.k.*); misol:

شیشه پنجره تَرَک برداشت.

Šiše-ye panjare tarak bar-dāšt.

Derazaning oynasi darz ketti;
بر اثر زلزله زمین شکاف برداشت.
Bar asar-e zelzele zamin šekāf bar-dāšt.
Zilzila natijasida yer yorildi.
کوزه شکاف برداشت *(http://www.vajehyab.com)*.
Ko'za yorildi - kuze šekāf bar-dāšt

Funksional ekvivalentlari:
[be vojudآوردن ایجاد کردن [ijād kardan]، به وجود ،āvardan] حاصل کردن
.[hāsel kardan]

2) qoplab olmoq, bosib ketmoq, bosmoq, tutmoq (*suv, ovoz va sh.k.*); misol:
شیر را باز گذاشتند، آب همه جا را برداشت.
Šir rā bāz gozāštand, āb hame jā rā bar-dāšt.
Kranni ochiq qo'yishibdi, hamma joyni suv bosdi;
صدای داد و فریاد ... دواخانه را برداشته بود *Jamol)*
.(Mirsodeqi, 1351:42
Sedā-ye dād va faryād… davāxāne rā bar-dāšte bud.
Dod-faryod ovozi muolija xonasini tutgandi.

Funksional ekvivalentlari:
فراگرفتن [farā-gereftan]، پر کردن [por kardan]،
.[gereftan گرفتن

Ko'rib chiqqanimizdek, برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'li o'zining to'rt ma'no guruhidagi o'n sakkizta ma'no qatorida qirq beshdan ortiq so'z bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishadi. Bu esa prefiksli fe'llar ham ko'pma'noli bo'lishi mumkin degan fikrimizning isboti bo'la oladi. Albatta ko'pma'nolilik faqatgina ushbu fe'lga xos emas, balki boshqa prefiksli fe'llarda ham kuzatiladigan holat bo'lib, ular ushbu tadqiqot obyekti bo'lmaganligi sababli faqatgina برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'li bilan kifoyalandik. Aytib o'tish lozimki, برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining biz keltirib o'tgan ushbu to'rt ma'no guruhidan har birining, hatto ushbu ma'no guruhlari ichidagi har bir ma'noning sodda, prefiksli va qo'shma fe'llar ko'rinishidagi variantlari mavjud bo'lib, bir maqola doirasida ularning barchasini ko'rib chiqishning iloji yo'q. Shundan kelib chiqqan holda برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining o'zi anglatadigan ma'nolaridan biridagi funksional ekvivalentlarini ko'rib chiqamiz. Ya'ni biz برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining u anglatadigan ma'nolarning birinchi – ***"olish" ma'no guruhi***ga tegishli bo'lgan *(joyidan) olmoq, (joyidan ko'tarib) olmoq, (qo'liga) olmoq* ma'nosidagi funksional ekvivalentlari to'g'risida batafsilroq so'z yuritamiz.

Hozirgi fors tilida turli o'rinlarda برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'li anglatadigan *(joyidan) olmoq, (joyidan ko'tarib) olmoq, (qo'liga) olmoq* ma'nolarini ifodalashda ushbu fe'lga funksional ekvivalent sifatida eng ko'p qo'llaniladigan quyidagi fe'llarni aniqladik:

به (در) دست گرفتن [be (dar) dast gereftan], گرفتن [gereftan], برگرفتن [bar-gereftan], بلند کردن [boland kardan].

Ko'rib o'tganimizdek, hozirgi fors tilida *(joyidan) olmoq, (joyidan ko'tarib) olmoq, (qo'liga) olmoq* ma'nolarini ifodalashda برداشتن [bar-dāštan] fe'lining funksional ekvivalentlari vazifasini bajarib keluvchi fe'llar asosan گرفتن [gereftan] fe'li hamda ushbu fe'l ishtirokida yasalgan prefiksli va qo'shma fe'llar, shuningdek, بلند کردن [boland kardan] qo'shma fe'lidan iborat.

گرفتن [gereftan] fe'li *(joyidan) olmoq, (joyidan ko'tarib) olmoq, (qo'liga) olmoq* ma'nolarini ifodalashda برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining eng faol funksional ekvivalenti bo'lib, ushbu ma'noni ifodalash lozim bo'lgan barcha o'rinlarda ishlatiladi. Misollar:
معصومه... دلش می خواست بقچه مادر را باز کند، چادر را از سرش بگیرد و به او بگوید که می تواند همیشه در این خانه بماند *(Hotami, 1372:187)*.
Ma'sume ... delaš mixāst boyče-ye mādar rā bāz konad, čādor rā az saraš begirad va be u beguyad ke mitavānad hamiše dar in xāne bemānad.
Ma'suma ... onasining tugunini ochib, boshidan chodirini echib, unga mana shu uyda bir umr qola olishini aytgisi kelardi.
حتی برای گرفتن اسکناس هم تکانی به خود نداد *Jalol Ol-e)*
.(Ahmad, 1374:50
Hattā barāye gereftan-e eskenās ham tekāni be xod nadād.
Hatto pulni (yerdan) olish uchun ham qimirlab qo'ymadi.

به (در) دست گرفتن [be (dar) dast gereftan] fe'li *(joyidan) olmoq, (joyidan ko'tarib) olmoq, (qo'liga) olmoq* ma'nosini ifodalashda برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining funksional ekvivalenti sifatida qo'llaniladigan fe'llardan biri bo'lib, *biror narsani biror joydan aynan qo'l bilan olmoq* ma'no ottenkasini ifodalashda qo'llaniladi. Misol:
ولی مگر تفنگ را حتماً برای آدم کشی به دست باید گرفت *Jalol)*
؟(Ol-e Ahmad, 1374:122
Vali magar tofang rā hatman barāye ādamkoši be dast bāyad gereft?
Nahotki miltiqni faqat odam o'ldirish uchun qo'lga olish kerak bo'lsa?

برگرفتن [bar-gereftan] fe'li *(joyidan) olmoq, (joyidan ko'tarib) olmoq, (qo'liga) olmoq* ma'nosini ifodalashda برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining funksional ekvivalenti sifatida qo'llaniladigan fe'llardan biri bo'lib, asosan *biror og'irroq yoki yirikroq narsani yerdan yoki quyidan yuqoriga olmoq* ma'no ottenkasini ifodalashda ishlatiladi. Misollar:
ظرفی نداریم که با آن آب برگیرم *Sodeq Hedoyat,)*
.(1333:56

Zarfi nadārim ke bā ān āb begiram.

Biror bir idishim yo‘qki u bilan suv olsam.

سنگ بزرگی که بر سر چاه بود که زور چهل مرد می‌خواست تا آن را برگیرد *(Mohammad Ali Eslomi Nadushan, 1363:315).*

Sang-e bozorgi ke bar sar-e čāh bud ke zur-e čehel mard mixāst tā ān rā begirad.

Chohning og‘zida turgan ulkan toshni ko‘tarib olish uchun qirq erkakning kuchi kerak edi.

بلند کردن [boland kardan] fe’li ham *(joyidan) olmoq, (joyidan ko‘tarib) olmoq, (qo‘liga) olmoq* ma’nosini ifodalashda برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe’lining funksional ekvivalenti sifatida qo‘llaniladigan fe’llardan biri bo‘lib, asosan *biror narsani joyidan ko‘tarib olmoq* ma’no ottenkasini ifodalashda ishlatiladi. Misollar:

قهرمان وزنه برداری وزنه را بلند کرد و به پیروزی رسید *(Anvari, Hasan, 1381:1016).*

yahremān vazanebardāri vazane rā boland kard va be piruzi resid.

Og‘ir atletika bo‘yicha chempion shtangani ko‘tardi va g‘alabaga erishdi.

Ko‘rib o‘tganimizdek, fors tilidagi برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe’li *(joyidan) olmoq, (joyidan ko‘tarib) olmoq, (qo‘liga) olmoq* ma’nolarini ifodalashda to‘rt fe’l bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishadi. Ya’ni ushbu fe’llarning barchasi umumiy *(joyidan) olmoq, (joyidan ko‘tarib) olmoq, (qo‘liga) olmoq* ma’nolarini ifodalashda برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe’li bilan o‘rin almashib kela oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Anvari, Hasan. Farhang-e bo‘zo‘rg-e so‘xan / be sarparasti-ye Hasan Anvari. - Tehron: So‘xan, 1381. 8 jeld. Jeld-e 2.
2. Balli Sh. Obshaya lingvistika i voprosi frantsuzkogo yazika. – Moskva: Editorial URRS, 2001.
3. Habib Ahmadzode. Shatranj bo moshin-e qiyomat. Ro‘mon. - Tehron: Sherkate enteshorot-e sure-ye mehr, 1387.
4. Hotami. Sho‘kufoyi-ye doston-e kutoh dar dahe-ye no‘xo‘stin-e enqelob. (majmue-ye dostonho). - Tehron: Elmi va farhangi, 1372.
5. Jalol Ol-e Ahmad. Se tor. – Tehron: Enteshorot-e Ferdous. Chop-e do‘vvo‘m, 1374.
6. Jamol Mirsodeqi. Mo‘ntaxab-e dostonho. – Tehron: Tus, 1351.
7. Kartsevskiy S.O. Ob asimmetrichnom dualizme lingvisticheskogo znaka // Istoriya yazikoznaniya 19-20 vekov v ocherkax i izrecheniyax. – Moskva, 1965. Ch. 2.
8. Kropotova L.V. Problema razgranicheniya sinonimii i variativnosti // Filologicheskiye nauki. Voprosi teorii i praktiki, 2009. - № 2 (4).
9. Kuznetsova E.V. Leksikologiya russkogo yazika. – Moskva: Visshaya shkola, 1989.
10. Mohammad Ali Eslomi Nadushan. Ruzho (sargo‘zasht). – Tehron: Yazdon, 1363. Jeld 1.
11. Mohammad Ali Jamolzode. Haft qesse. – Tehron: Parvin, 1321.
12. Persidsko-russkiy slovar: v 2-x tomax, pod redaktsiyey Yu.A.Rubinchika, 3-izdaniye, I-tom. – Moskva: Russkiy yazik, 1985.
13. Sodeq Hedoyat. Mozyor. – Tehron: Amir Kabir, 1333.
14. http://farsi.khamenei.ir
15. (http://farsi.khamenei.ir/newspart-index?tid=1268)
16. http://tandorosti.akaup.com
17. (http://tandorosti.akaup.com/health/bimari-behdasht/news201751055416344. html)
18. http://www.vajehyab.com
19. (http://www.vajehyab.com/amid/%D8%A8%D8%B1%D8%AF%D8%A7%D8%B4%D8%AA%D9%86)
20. https://article.tebyan.net
21. (https://article.tebyan.net/261530/%DA%86%D8%B1%D8%A7-%D8%A8%D8%A7%DB%8C%D8%)
22. https://article.tebyan.net
23. (https://article.tebyan.net/261530/%DA%86%D8%B1%D8%A7-%D8%A8%D8%A7%DB%8C%D8%)
24. https://books.google.co.uz
25. (https://books.google.co.uz/books?id=65E0DgAAQBAJ&pg=PT77&dq=%D8%A8%D8%A7+%D8%AF%D9%)
26. https://books.google.co.uz
27. (https://books.google.co.uz/books?id=IBrkAwAAQBAJ&pg=PT191&lpg=PT191&dq=%D8%B3%D8%B1%D8%B4+%D8%B1%D8%A7+%D8%A8%D8%B1%D8%AF%D8%A7%D8%B4%D8%AA)
28. https://books.google.co.uz
29. (https://books.google.co.uz/books?id=J_KBDwAAQBAJ&pg=PT147&lpg=PT147&dq=%D8%AE%D9%88%D8%AF%D8%B4+%D8%A8%D8%B1%D8%AF%D8%A7%D8%B4%D8%AA&source=bl&ots=IaMZzO9aPI&sig=)
30. https://books.google.co.uz
31. (https://books.google.co.uz/books?id=kHPIAwAAQBAJ&pg=PT202&lpg=PT202&dq=%D8%A7%)
32. https://virgool.io
33. https://www.bbc.com
34. (https://www.bbc.com/persian/afghanistan/2015/01/150104_k05_afghan_saffron_reduce)
35. https://www.mashreghnews.ir
36. (https://www.mashreghnews.ir/news/703428/%D9%81%DB%8C%D9%84%D9%85-%D8%AF%D8%AE%D8%AA%D8%B1%DB%8C-%DA%A9%D9%87-%DA%A9%D9%84%D8%A7%)
37. https://www.rokna.net
38. (https://www.rokna.net/%D8%A8%D8%AE%D8%B4-%D8%A7%D8%B3%D8%AA%D8%A7%DB%8C%D9%84-17/401519-%D8%B3%D8%A7%D8%AF%D9%87)
39. https://www.yasa.co
40. (https://www.yasa.co/blog/look-at-the-crime-scene-of-chapa/)